



YOSHLARNI G'OYAVIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Shukurova Dilorom Xolmo`minovna

Uchtepa tuman 81-IDUM Boshlang'ich sinf

o'qituvchisi "Shuxrat" medali sohibasi

Annotatsiya: Bu tezis kelajak posbonlari bo'lmish yoshlarni tarbiyalashda ideal ta'limning muhim ahamiyatini o'rganadi. U ideal ta'limning ko'p qirrali jihatlarini o'rganadi, bu nafaqat akademik mukammallikni, balki har tomonlama rivojlanish uchun zarur bo'lgan axloqiy, axloqiy va amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot fanlararo yondashuv orqali ideal ta'limning individual o'sishga, jamiyat taraqqiyotiga va global raqobatbardoshlikka chuqur ta'sirini o'rganadi. Nazariy asoslar va empirik dalillarga asoslanib, u yoshlarga zamonaviy dunyoning murakkabliklarida donolik, rahm-shafqat va chidamlilik bilan harakat qilish imkoniyatini beradigan keng qamrovli ta'lim paradigmasini himoya qiladi.

Kalit so'zlar: Imkoniyatlar tengligi, Global raqobatbardoshlik, Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Tanqidiy fikrlash

Zamon shiddat bilan taraqqiy topib bormoqda. Jahonda mafkuraviy, g'oyaviy va information kurashlar kuchayib borayotgan bir paytda yoshlar tarbiyasi masalasi qay ahvolda? Bugungi yoshlar tarbiyasi qay taqlidda kechmoqda? Belinskiy ta'kidlaganidek: „Tarbiyaning asosiy quroli va vositachisi muhabbat, maqsadi – insoniylik bo'lmog'i lozim“. Demak, tarbiyani ham maqsadli yo'naltirish zarur. Shundagina u samara berishi



mumkin. Tarbiya masalasida gap ketar ekan, uning bir qator turlari mavjudligini esga olish o'rinlidir: ruhiy tarbiya, ma'naviy, axloqiy, huquqiy, g'oyaviy tarbiya singari. Ularning har biri yoshlar tarbiyasining uzilmas bog'ichlaridir. Vatan kelajagi va ravnaqi yoshlar qo'lida ekanini ongli anglagan holda ularning tarbiyasi borasidagi har bir jihatni e'tibordan chetda qoldirmaslik talab etiladi. Zero, ertasidan qayg'urgan el har qanday sa'y-harakatini bugundan boshlamog'I lozim. Ularning tarbiyasini to'g'ri yo'naltirishini nazorat ostiga olish kerak. Bu hususda E.Kyubler-Ros: „Bolalarni hayot muammolaridan hadeb himoya qilavermang. Chunki ular ham kelgusida yashash uchun kurashib, muvaffaqiyatga erishish uchun hayotiy tajriba orttirishlari kerak,“ – degan edi.

Muhtaram Yurtboshimiz o'z nutqlaridan birida shunday degan edilar: „Marra bizniki, marrani kattaroq oling“. O'z farzandlariga bunday yuksak ishonch bildirayotgan yurtboshimizning so'zlari, albatta, yoshlarga qanot bag'ishlaydi. Xalqimizda „Bola boshidan, nihol yoshidan,“- degan dono naql yuradi. Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi hususida, shuni ta'kidlash joizki, bu – o'ta muhim masala. Bu –kelajak masalasi, taqdir masalasi. Bu borada Yurtboshimiz bizga tinimsiz g'amxo'rlik qilmoqdalar, cheksiz shart-sharoitlar yaratib bermoqdalar, takror va takror yoshlar taqdiri, kelajak ravnaqi masalalariga to'xtalib o'tmoqdalar. Davlatimizda amalga oshirilayotgan har bir sa'y-harakatlar zahirida kelajak hayotimiz poydevori uchun mustahkam qo'yilayotgan tamal toshlari borligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi g'oyaviy muhofaza qobig'I bir lahzaga ham zaiflashmasligi talab etiladi. Vaholanki, unga tashqi kuchlar, yot g'oyalar hech qachon o'z ta'sirini o'tkaza olmasin. Inson qachon to'laligicha mustaqil bo'la oladi? O'zini tashqi „kuchlar“ ta'siridan holi eta oladi? Albatta, iymon-e'tiqodi butun, irodasi mustahkam va mustaqil fikrli bo'lsagina. Agar inson o'z shaxsiy fikrlarini charxlamay qo'yar ekan,



oqibat tashqi „kuch” ta’siriga tushib qolishi hech gap emas. Boisi, o’z mustaqil va sog’lom fikriga ega bo’lmagan shaxs ma’naviy qashshoq inson hisoblanadi, unga har qanday tashqi salbiy ta’sir ham osonlikcha singdirilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan hozirda yoshlarni foydali mashg’ulotlar bilan band qilish, ularning ongini milliy, xalqona, insoniy, shaxsiy tafakkurini boyitishga xizmat qiladigan g’oyalar bilan to’ldirish masalasi ma’naviy jasorat namunasi bo’lgan Muhtaram Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev hamda barcha fidoyilarimizning e’tiborini jalb qilib kelmoqda, kun mundarijasida eng dolzarb masala sifatida muhokamaga qo’yilmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kun yoshlarining har tomonlama : ham ma’nan, ham jismonan, ham ruhan baquvvat, yetuk, shijoatli, o’z mustaqil va sog’lom fikriga ega bo’lishlari shart, zarur va lozim.

Millatning millatlighi uning o’z milliyligini nechog’lik qadrlashi va asrab qola olganligidadir. Har qanday millatning kuchi va darajasi uning milliy mafkura va g’oyasining qay darajada kuchli va ahmiyatli ekanligida yaqqol namoyon bo’ladi.. Shunday ekan, yoshlar ongiga milliy g’oyani singdirish, ularning, birinchi navbatda, ma’naviy kuch-qudratini oshirish, ongida hech qanday ma’naviy bo’shliq hosil bo’lishiga yo’l qo’ymaslik, ularning g’oyaviy himoyasini ta’minlash va tarbiyaga to’g’ri yo’naltirish bugungi kunning eng muammoli va dolzarb masalaridan biri sifatida muhokamaga qo’yilishi kerak. Zero, hozirda, mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridan ham kuchliroq ekanligi tobora o’z isbotini topib bormoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanov B.E. Shaxs va jamiyat munosabatlarida go'zallikning namoyon bo'lish xususiyatlari. Falsafa fanlari nomzodi, diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2002. 4 bet
 2. Mustafayevich, B. A. (2021). Use of Fiction in the Formation of the Worldview of Youth. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(5), 37-40.
-